

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

MILLIY ISTIQLOL G`OYASI VA MA`NAVIYAT

ASOSLARI KAFEDRASI

O`QITUVCHISI BAROTJON IBRAHIMOVNING

“Milliy g`oya va mafkura” fanidan

“MILLIY MADANIYAT”

mavzusida yozgan

REFERATI

Namangan-2011

Mavzu: Milliy madaniyat.

Reja:

I.Kirish.

II.Asosiy qism.

1. Milliy madaniyatning shaxs va jamiyat hayotidagi o`rni.
2. Milliy madaniy meros.
3. O`zbekistonda jamiyatni ma'naviy yangilanish jarayonida milliy madaniyatga munosabat.

III.Xulosa

Kirish.

Shaxsning xukuk va erkinliklaridan tashkari uning jamiyat va umuminsoniyt oldidagi burchi va ma'suliyati ham bor. Inson o'zi yashab turgan jamiyatning koun-koidalari, tartiblari, ahloqiy, xukukiy normalariga amal kilmaslik, uning muammolari, kiyinchiliklariga befark karash aslo mumkin emas.

Barcha madaniyatli jamiyatning xususiyatini, uning mezon va mazmunini ziyolilar belgilaydi. Ziyolilik bu nafaqat keng bilimga ega bulishni, balki tashabbuskorlikni, javobgarlikni, ahloqiy-estetik jur'atni va tugma iste'odoni bildiradi.

qadriyatlarning muayyan jamiyat yoki sinfga mansub kishilar turmushi va madaniyatning xakikiy yoki ideal ne'matlar bulgan tabiat va jamiyat xodisalarining moxiyatidir. Bu ne'matlarning qadriyatlar deyilishiga sabab, kishilar ularni kadrldaydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi.

Madaniyatning me'yoriy rivojlanishi uni asrab kelgusi avlodlaga meros kilib koldirishni bildiradi. Birok, bu jarayon oddiy va bir xilda kechmaydi. Ma'naviy qadriyatlarning mundarijasi, ularni kayta kurib va kayta baxolash ularni uzaro bogliklik usullari, munosabat tiplari, bilimlarni asrash va uzatish, hayot me'yorlari voqelikni estetik idrok kilish xususiyati uzgarmasdan kolmaydi, ular uzluksiz xarakatda buladi. Meros serqirra va ko`p qiyofalidir.

1. Madaniyatning shaxs va jamiyat hayotidagi o`rni.

Shaxs bilan jamiyatning uzaro munosabatlari turli tarixiy davrlarda turlicha bulib, shaxs madaniyati jamiyat madaniyatini belgilaydi va shaxs madaniyati ham uz navbatida muayyan bir jamiyat madaniyatida shakllanadi. Har bir jamiyat shaxs qadriyatlarini belgilaydi va shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlaydi.

Jamitya bilan shaxsning uzaro munosabati, shaxsning erkinligi, uning xukuk va burchlari, insoniy qadriyatlar xaqidagi muammo barcha tarixiy davrlardagi muhim masala xisoblangan.

Inson tabiatning oliy maxsuli bulib, uning moxiyati barcha ijtimoiy munosabatlar yigindisi bilan belgilanadi. Inson ayni paytda ham tarixiy taraqqiyotning maxsuli, ham uning sub'ektidir. Ijtimoiy munosabatlar insonni ijtimoiy vujudga aylantiradi, dunyokarashini shakllantiradi. Inson ishlab chikarish jarayonida fakat narsalar yaratib kolmay, o`zini uz shaxsiyatini ham kayta yaratadi. Bu jarayonda inson o`zini takror ijod kiladi va shu jixatdan u ijtimoiy mavjudotdir.

Shaxsni jamiyatdan, ijtimoiy munosabatlardan ajratib bulmaganidek, jamiyat taraqqiyoti ham insonning amal faoliyati bilan uzviy boglikdir. Jamiyat bilan shaxs urtasidagi munosabat bir-biriga boglik, bir-birini takozo kiladigan munosabatlardir. Ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shaxs turmushining turli-tuman kurinishlari, xususiyatlari shakllanadi. Shaxsning shakllanishida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar xal kiluvchi rol uynaydi. Har bir shaxsda u mansub bulgan jamoaga, millatga, elatga, jamiyatga xos jami xususiyatlar va belgilar buladi. Shaxs uz hayotining butun mazmunini jamiyatdan, kishilar jamoasidan oladi. Har kaday shax ob'ektiv shart-sharoitlar va sub'ektiv omillarning uzviy birligi ta'siri ostida shakllanadi. Shaxs kamolotida ob'ektiv shart-sharoitlar xal kiluvchi rol uynaydi. Oila, ukuv dargoxlar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, matbuot, maxalla, kucha singari omillar ham shaxsni tarbiyalashda muhimdir. Ob'ektiv shart-sharoitlarning shaxsga ta'siri sub'ektiv omillar orkali utadi.

Shaxs ijtimoiy mavjudot sifatida muayyan erkinlikka ham egadir. Uning erkinlik darajasi jamiyatning ijtimoiy to'zilishiga, mulkiy munosabatlari ham bog'likdir. Erkinlik har bir shaxsning tabiiy xukukidir. Shaxsning tabiiy xukukidir. Shaxsning insoniy xukuklari va erkinliklarni chegaralab kuyish, paymol qilish; milliy, diniy kamsitishlar; irkchilik; xalqlarning tili, urf-odatlarini, tarixi, madaniy meroslari, milliy qadriyatlariga bepisand karash, ularning xukukiy va manafaatlarini kamsitishdir.

Shaxsning xukuk va erkinliklaridan tashkari uning jamiyat va umuminsoniyat oldidagi burchi va ma'suliyati ham bor. Inson o'zi yashab turgan jamiyatning qonun-qoidalari, tartiblari, ahloqiy, xukukiy normalariga amal qilmaslik, uning muammolari, qiyinchiliklariga befarq karash aslo mumkin emas.

Har bir shaxsning umumxalq manfaatlariga tula taallukli bulgan burchlar va ma'suliyatlari ham buladi. Bular tabiatni muxofaza qilish, uning boyliklarini kuriklash, madaniy-tarixiy yodgorliklarni saklash xaqida gamxurlik qilish, boshka xalqlar va mamlakatlar bilan dustlik, tinchlikni saklash singarilardir.

Barcha madaniyatli jamiyatning xususiyatini, uning mezon va mazmunini ziyolilar belgilaydi. Ziyolilik bu nafaqat keng bilimga ega bulishni, balki tashabbuskorlikni, javobgarlikni, ahloqiy-estetik jur'atni va tugma iste'odoni bildiradi.

Shaxsning komillikka erishuvini ta'minlashda jamiyatdagi mexnat madaniyatini rivojlantirish, kishilarning siyosiy ongilligini oshirish, ahloqiy va estetik nafosatini tarbiyalashda madaniyatning tarkibiy kislmlari, soxalari katta vazifani bajaradi. Shaxsni sotsial jixatdan farklanishiga kura insonning mexnat madaniyati, munosabat madaniyati, axlok madaniyati, badiiy-tafakkur madaniyati, dunyokarashi ruxni olami xaqida gapirish mumkin. Madaniyat ijtimoiy to'zilma sifatida ilmiy bilimlarni, tafakko'rni, urf-odat va an'analarni kamrab oladi.

Shaxs madaniyatning shakllanishida jamiyat madaniyatining quyidagi tizimlari ahamitlidir:

Siyosiy madaniyat-kishilarning siyosiy ongi, manfaatlari, e'tikodlari, maksadlarini ifodalovchi siyosiy-xukukiy goyalar majmui bulib, ma'naviy qadriyatlarning maxsus tizimini tashkil kiladi. Bu madaniyat tarixiy taraqqiyot boskichlarida jamiyatning ijtimoiy tabakalari manfaatlaribilan boglik xolda vujudga kelib, jamiyat siyosiy faoliyatiga uzviy boglik. Siyosiy madaniyat, siyosiy faoliyat sifatida, ya'ni insonlar faoliyatidagi tabiatni kayta yaratish va uzlarini tarbiyalash jarayonlarini kamrab olib, “siyosiy ishlab chikarishni” aks ettiradi.

Siyosiy madaniyatning mavjudlik usuli: jamiyatning siyosiy-madaniy boyligi; amaliy siyosiy madaniyatdan iboratdir. Jamiyatning siyosiy-madaniy boyligi-davlat boshkaruvining tarixiy tajribasi, siyosiy faolit vositalari, usullari, siyosiy bilimlar majmuidir. Amaliy siyosiy madaniyat esa-jamiyat, gurux, shaxs siyosiy hayotidagi mavjud madaniyatdir.

Iqtisodiy madaniyat-tushunchasida iqtisodiy bilimlar fikrlar uslubi bilan faol ishlab chikarish, iqtisodiy faoliyat urtasidagi uzaro alokadorlik omillari namoyon buladi. Iqtisodiy madaniyat mazmunida madaniyat va iktisodning uzaro ta'sir xususiyatlari mavjud bulib, tarkibiga iqtisodiy ong, iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy munosabatlar kiradi.

Ahloqiy madaniyat-jamiyat, sotsium, individlar tomonidan ahloqiy kamolot me'yorlariga erishish darajasidir. kundalik turmushda, kishilar faoliyatida amal kiladigan va uxlashtiradigan ahloqiy qadriyatlar ahloqiy kamolot me'yorlari bilan boglikdir. Ahloqiy madaniyat tarkibiga ahloqiy ong, ahloqiy munosabat va ahloqiy faoliyat kiradi.

Ahloqiy ong tarixi uzgaruvchi ahloqiy munosabatlarni anglab, ahloqiylikning sub'ektiv jixatidir. Vokelikka va inson faoliyatiga qadriyat tarafidan munosabatda bulish ahloqiy ongning muhim xususiyatidir.

Estetik madaniyat insonning ma'naviy-xissiy faoliyati bilan boglangan munosabat va qadriyatlar tizimini ifodalaydi. Estetik madaniyat soxasi-bu, insonning tevarak atrofini urab olgan voqelikka nisbatan buladigan munosabatida o`zini erkin namoyon etishdir. Bu erkinlikning moxiyati shundaki, inson predmetga, uning jinsi va turiga mos me'yorni topib gavdalantiradi, uni kayta ishlaydi.

Estetik madaniyat jamiyat madaniyatining ixtisoslashtirilgan kismi bulib, uning xolatini san'at va estetik munosabatlar rivojlanishi bilan boglab tushuntirish mumkin.

2. Madaniy meros.

Kadriyat tushunchasi madaniyatshunoslikning asosiy tushunchalaridandir.

Ayrim tadqiqotchilar uni davrning extiyojini belgilaydi, ya'ni, tarixiy xususiyat kasb etadi deb xisoblasa, boshka bir tadkikotchi Rikert aksincha, qadriyat doimiy, universal xususiyatga ega deydi.

qadriyat -kishilar hayotida uta ahamiyatli xodisadir. Uni madaniyat soxalari ruyobga chikargan xodisa sifatida bogliklikda anglash mumkin. Shundja xujalik, texnik, ijtimoiy, siyosiy, badiiy, ilmiy, ahloqiy qadriyatlar ajraladi. Rasmiy nuktai nazardan kadriyatni ijobiy va salbiy, o`ziga xos va doimiy, mustikil va shartli tarzda fark lash mumkin. Moddiy nuktai nazardan qadriyat xissiy (ya'ni oddiy xis kilish organi)-bu hayotiy, maishi, texnik, kinikish qadriyati va boshka; va ma'naviy-ilmiy, ahloqiy, estetik, diniy va boshkalarga bulinadi. Ayrim qadriyatlar (xujalik, texnik, siyosiy) tarixiy xususiyat kasb etib, ya'ni madaniyat, davr uzgarishi bilan ham uzgarib turishini batafsilrok urganish chogida aniklash kiyin emas; boshka qadriyatlar esa doimiy, universal xususiyatga ega (ahloqiy, badiiy).

qadriyat ijtimoiy faoliyatni tartibga solib, individlar, guruxlar va jamiyatning muhim yutuklariga erishuvini belgilaydi. Ij timoiy kulamdagi mazmun darajasi buyicha qadriyat uzviylikka ega. qadriyatni dastlabki

darajasi oddiylari orasidan ajralgan anik narsalar, xolatlar xarakatlarning afzallari bilan boglik. Ikkinchi darajasi esa, ma'lum individga yaqin bulgan ijtimoiy guruxlar kizikishga mos keluvchi obrazlar xarakati yoki faoliyatning tanlanishi bilan boglik. Uchinchi daraja -bu eng yuksak umuminsoniy maksadlardagi tanlanish bulib, bunda ezgulik, xakikat, guza llik, adolat, tartib, boylikka karama-karshi yovuzlik, yolg'on xunuklik, betartiblik, kashshoklik, mujassamlikda namoyon buladi. yoki bu takdir bilan boglik uta yuksak tanlash xisoblanadi.

qadriyatlarining muayyan jamiyat yoki sinfga mansub kishilar turmushi va madaniyatning xakikiy yoki ideal ne'matlar bulgan tabiat va jamiyat xodisalarining mohiyatidir. Bu ne'matlarining qadriyatlar deyilishiga sabab, kishilar ularni qadrlaydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi.

Qadriyatlar ichida eng asosiysi va umumiysi hayotdir. Xayotdan maxrum bulish kolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yukka chikaradi, kolgan qadriyatlar aslida, hayot ne'matlarining mohiyatidir, madaniy qadriyatlardir.

Qadriyatning hayotdani o'rnini va ahamiyati baxolash tufayli belgilanadi.

Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bulgan, millat, elat, va ijtimoiy guruxlarning manfaatlari va maksadlariga xizmat kiladigan tabiat, jamiyat xodisalari majmui tushunilmog'i lozim.

Inson mehnati, akli bilan yaratigan moddiy boyliklar moddiy boyliklar xisoblanadi. Ma'daniy-ma'naviy qadriyatlarga ilmiy-texnikaviy va intellektual imkoniyatlar yaratgan boyliklar mansub. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotida, inson hayotida ijtimoiy -siyosiy qadriyatlar: erkinlik, tenglik, birodarlik, kabilar ham urini tutadi. Ijtimoiy -siyosiy qadriyatlar ichida istikbol tufayli kulg'a kiritilgan barkarorlik, tinchlik, totuvlik aloxida ahamiyatga ega.

Umuminsoniy qadriyatlar mazmuni jixatdan chukur va keng bulib, umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maksad va intilishiga muvofik keladi.

Umuminsoniy qadriyatlar turkumiga insoniyat sivilizatsiyasining tarkkiyoti bilan boglik bulgan umumbashariy muammolar kiradi. Bular: yer yo`zida ilm-fanni tarakkiy ettirish, tinchlikni saklash, kirgin kurollarini tuxtatish, tabiatni muxofaza kilish va xokozolardir.

Madaniy meros-bu utmishda kolgan qadriyatlar, goyalar, tajriba, bilimlar ularni uzlashtirish yullari, ya'ni kishilarning ijodiy faoliyat usullari va uni tashkil kilish hamda uning natijalaridir. Uzlashtirish yoki anikrogi, madaniy merosjarayoni uta muhim bulib, madaniyatning xarakatdagi asosiy konunlaridan biri xisoblanadi. Bu jarayon insoniyatning utmishi, buguni, va kelajagini bir butun xolda birlashtirib, odatiy tarzda tayyor yutuklarga aylanadi. Bor narsani izlash, ma'lum narsani ochish kilingan kashfiyotni kashf kilish kerak bulmaganidek, utmish ajdodlar kilgan kilgan ishni takrorlash shart emas. Erishilgan yutuklardan kelib chikib jamiyat uz maksadlarini amalga oshirishning kiska yullarini tanlaydi. Bundan tashkari ma'naviy meros kishilarning saviyasini baxad kengaytiradi, ular hayotini akliy va xissiy jixatdan boyitadi. bilimning tuganmas manbai bulib xizmat kiladi.

Utmish bilan batamom o`zilish mumkin emas. Insoniyat tarixida mutlako yangi madaniyat yaratishga urinishlar bulgan, birokbunday urinishlar xunuk natijaga olib kelgan. Bunga 1992 yillarda Sovet Rossiyasida “Proletar madaniyatini” yaratishga urinishni yoki “madaniy inkilob” ni misol tarikasida keltirish mumkin. Bu “inkiloblar” jarayonida yangi madaniyat yaralmadi, aksincha bori ham kilindi; kulyozmalar, kitoblar, suratlar yokildi; me'moriy yodgorliklar bo`zildi, eng achinarlisi madaniy qadriyat egalari maxv kilindi.

Madaniyatning me'yoriy rivojlanishi uni asrab kelgusi avlodlaga meros kilib koldirishni bildiradi. Birok, bu jarayon oddiy va bir xilda kechmaydi. Ma'naviy qadriyatlarning mundarijasi, ularni kayta kurib va kayta baxolash ularni uzaro bogliklik usullari, munosabat tiplari, bilimlarni asrash va uzatish, hayot me'yorlari voqelikni estetik idrok kilish xususiyati uzgarmasdan kolmaydi, ular uzluksiz xarakatda buladi. Meros serkirra va kup kiyofalidir.

Uning anik namoyon bulishi tiplarning kupligi, tendensiyalar xilma-xilligi bilan farklanadi. Har bir yangi avlodning vorislik mexanizmi utmishdoshlarning tajribasidan madaniyatning turli soxalarida farklanadi: san'atdagi ulcham fandagidan boshkacha; tabiiy fanlar gumanitar fanlardan farkli. vorislik (meros) xar kanday soxada insonning xakikiy uzlashtirishida namoyon buladi va ayni paytda maxalliy yoki dunyo mikiyosidagi jarayonlar shaklida ham ifodalanishi mumkin

Madaniyat va ma'naviyat soxalari tarkibida til, udumlar, an'analar va boshkalar bulsa, ma'lum xalqning madaniy tarixi doirasida meros koldirish jarayoni yaxshirok kechadi. Boshka soxalarda esa texnika, fan, san'at kabi soxalardagi bir xalqqa tegishli meros boshka xalqlarga ham tegishli mulkka aylanadi.

Keyingi avlodlarga meros koldirish uchun madaniyatda belgilangan usul va mexanizm mavjud. Ulardan ba'zilar kadimdam amal kiladi, bu - namoyish kilish, ogzaki uzatish, folklor, san'at; boshka usullar keyinrok paydo buldi, bu - kino tasviri, oxanrabo yozuvi, kompyuter xotirasi. Barcha jamiyatda ham xakikatdan ma'naviy merosning foydalanish imkoniyatlarini uzgartirish sharoiti bir xilda emas. Ular ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy goyaviy omillar bilan belgiladi. Bu omillar merosning xajmi, tanlash xususiyati, intensivligiga boglik. Madaniy merosdan mutlako maxrum bulgan yoki foydalanmagan jamiyat yoki xalqlar tarixda bulishi mumkin emas.

Madaniy merosning mexanizmi quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Ma'naviy merosning uzviyligi. Ajdodlar yaratgan jamiki boylikka yangi avlod merosxur bulad, tarixiy ahamiyatini yukotgan madaniyat o`rnida yana madaniyatlar vujudga keladi, avvalgilardan kup narsalar uzlashtiriladi. Utmish tajribasi bugun va kelajak uchun xar doim askotishi mumkin, shuningdek, bugun unitilgan narsalar butunla yukolib ketmaydi. Masalan, V. Shekspir yuz yilcha unitilib, keyingi avlodlar uchun jahon adabiyoti va dramaturgiyasining klassigi sifatida tanildi.

2. Utmishdan kelajakka utish jarayonida mer osning uzgarishi. Madaniy merosning utish davrida xususiyati uzgarishi mumkin. Ya'ni milliy goya mavjud nuktai nazar va bilimlar talabiga mos keluvchi yangi talkindagi ma zmun kasb etadi. Mana shunday kurinishda u kelajakka meros bulib utadi. Bizning kunimizgacha sukrot va demokrat asarlarining asl nusxasi saklanib kolmagan, biroq xar bir avlod ularning goyasini o`zi uchun yangitdan kashf kiladi. va ularning falsafasinitalkin kiluvchi minglab kitoblar yaratiladi.

3. Utmishdan kolgan barcha narsalar butupnlay uzlashtirilmaydi, balki yangi davr talabiga, ruxiga javobberuvchi, moxiyatan zarur narsalargina olinadi. Hozirda eskirgan va kerakmas deb xisoblangan narsalar, balki yangi moxiyat va muhim ahamiyat kasb etar

Allakaysi davrda kolib ketgan kiyinish usuli kutilmaganda odatga aylanishi mumkin. Yangi hayot kadim donishmandchiligidan goya oladi.

Har bir etnos, xalq o`zining mustakil, betakror, bexad noyob madaniyatga ega. Xalklar hayotining mintakaviy, tarixiy o`zigan xosligi xar bir xalq madaniyatining rivojlanishi uchun sharoit yaratib beradi,u yoki bu etnos hayotining saklanib kolishi va barhayotligiga imkon tugdiradi. Shu tarzda millatlar olami-umumiy koinot shakllanadi, unda inson va uni tarixan urab turuvchi tabiat uygunlashib etnoslarning ijtimoiy ruxiyatiga ta'sir kursatadi, milliy xususiyat shakllanadi va uning amaliy faoliiyat yunalishini aniklaydi.

Mana shu boshlangich madaniyatolamida inson turadi, bu yerda uning muhim o`rni maksadi shakllanadi, uning didi, hayotiy orzusi paydo buladi. Inson, madaniyatlarga merosxur sifatida milliy mulkni uzlashtiradi. Namunaviy xulk qadriyatlarini asrashda vakelajakka koldirishda, jamiyatda odamlar urtasida munosabatlarni tartibga soluvchi,anik barkarorlik bulishi zarur. madaniyatning mavjudligi va rivojlanish an'anasida. madaniyatni asrash usulida xa m barkarorlik bor.

An'ana madaniyatda yangi odatlar bilan uygunlashib ketadi..Insonga nafaqat bilish, shuningdek, hayot faoliyatida an'anaviy ibratlar va yaxshi

uzlashtirilgan maxorat va kunikma ham zarur. Milliy ma'naviy meros muammosi mamlakatimizda jamiyat uchun uta muhimlilik kasb etmokda.

O`zbek xalqining madaniy merosi ming yillar davomi da yaratilgan. Unda turli davrlarda O`zbekiston xududida e'tiko d kilingan zardushtiylik, buddizm, islom va boshka dinlar yaratganma'naviy-ahloqiy qadriyatlar mujassamlashgan; Unda butun dunyoga mashxur imomal-Buxoriy, at-Termiziy, Nakshbandiy, Yassaviy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug`bek, A.Navoiy kabi buyuk mutafakirlarning bilimi va saloxiyati gavdalangan, bu merosda Amir Temur va Boburlarning davlatchilik va siyosiy kurilish tajribalari; buyuk ma'morchilik yodgorliklari, tasviriy san'at, mo`zika. amaliy san'at asarlari, xalq urf-odatlari va an'analari. milliy sport turlari uygunlashgan.

3.O`zbekistonda jamiyatni ma'naviy yangilanish jarayonida milliy madaniyatga munosabat.

Mustakillik yillarida xalqqa uning ma'naviy va madaniy boyliklarini kaytarish borasida kuplab ishlar qilinmoqda. Dastlabki, eng muhim qadam”O`zbek tili xaqidagi”qonunning qabul qilinishi buldi. Bu bilan uzbek tilidagi xalqning beboxo madaniy va milliy boyligi makomi tiklandi. Buxoro va Xiva shaxarlaridagi me'morchilik yodgorliklarini ta'minlash borasida faol ishlar olib borilib, yodgorliklar shu davrda jahon ahamiyatidagi makomga ega buldi.

Xalkka uz tarixi va xotirasi kaytarilmokda. Milliy va jahon madaniyati rivojiga ulkan xissa kushgan vatandoshlarimizning xizmatlari xaqida yubiley tan'tanalari utkazildi.

Milliy an'analarni tiklash buyicha kuplab ishlar kilindi, Navruz, xayit kabi kadingi xalq va diniy bayramlar rasman hayotga kaytdi. Xayr muruvvat udumlarini davom ettirish va yosh avlodni barkamol ustirish maksadida O`zbekiston Respublikasi Soglom avlod uchun jamgarmasini tashkil kilib, dastlabki ordenni ham shunday atadi, O`zbekistonda xalqaro kino , teatr va “Sharq taronalari”kabi musikali festivallar utkazish yaxshi an'anaga aylanib koldi.

Madaniy qadriyatlar vorislik jarayoni nafaqat milliy madaniyatlar rivojidadagi vorislik bulmay, balki boshka xalqlar madaniyatidagi yutuklarni umumlashtirishdan ham iboratdir. Markaziy Osiyo mintakasida yashovchi xalqlarning madaniyati kadim zamonlarda ham Garb va Sharq mamlakatlari bilan yaqin madaniy alokalar asosida rivojlangan. Madaniy hamkorlikning keng kulami, etnik va diniy mazmundagi cheklanmagant Vatanimiz madaniyatining asosiy xususiyatidir. Hozirgi davrda ham milliy madaniyatni tiklashga asosiy e'tiborni karatgan xolda O'zbekiston xalqi jahon madaniyati va sivilizatsiyasining zamonaviy yutuklarini egallashga xarakat kilib, jahon madaniyati rivojiga xissa qo'shmoqda. Bu borada jadal amaliy ishlar qilinmoqda: xalqaro konkurs va festivallar utkazildi, chet mamlakatlar madaniyat kunlari va san'at asarlari kurgazmasi namoyish kilindi, xind madaniyat markazi, fransuz madaniyat uyi singari doimiy faoliyat kursatuvi madaniyat markazlari ochildi, uz o`rnida O'zbekiston madaniyatining o`ziga xos xususiyatlarini nazariy asoslash va uning jahon madaniyatidagi o`rnini munosib baxolash ishtiyoki ham kuchli. Buning dalili sifatida "Mirzo Ulugbek va uning jahon sivilizatsiyasiga kushgan xissasi" (1994). "O'zbekistonning jahonda tutgan o`rni va roli. Buxoro va jahon madaniyati" (1995), "O`rta Osiyo va jahon sivilizatsiyasi" (1998) kabi mavzularda o`tkazilgan xalqaro konferensiya va seminarlarni kursatish mumkin.

O'zbekiston o`zining boy madaniy an'analari va jahon madaniyati jarayonlaridagi faol ishtroki tufayli uning xalqaro mikiyosidagi makei tobora oshmokda.

XX asr o`rtalaridan fan va texnika taraqqiyoti kuchli axborotlar yig`imini paydo kildi. Ommoviy axborot vositalari (OAV)-matbuo, kino, radio, televidenie, kompyuter alokasi zamonaviy sotsmadaniyat jarayonida salmokli urinni egallay boshladi.

Xakikatdan ham zamonaviy madaniyatning xolisona tahlili shuni kursatmoldaki, ma'naviy madaniyat kuprok ommaviylik kasb etib bormokda. Ommaviy madaniyatning kiyofasi quyidagicha:

1. U millati, yoshi, joyi, ijtimoiy xususiyatlarga boglik bulmagan ommaviy iste'molchilarga ega buladi;

2. Bu madaniyatdagi namunalarni yaratgan jarayonning o'zi ommaviy xususiyat kasb etib, industriyaning maxsus kurinishini o'zida namoyon kiladi, ya'ni unda yuz minglab kishilar band bulib, ularning “matbuot kiroli”, “Buyuk shou tomoshachilari”, “kino, TV, estrada yulduzlari” buladi.

Uning fikricha bu vosita insonlarning axborot olishdagi rakobat kurashida kudratli kuchga aylandi.

OAV elektron texnika va yuldosh alokalardan foydalanib, kishilarni ijtimoiy xodisalar va madaniy boyliklarni bir vaktida idrok kilishga undaydi. G.E. Makmoen ta'kidlaganidek «hammobop va omma yoktiradigan yangi dunyoviy elektron madaniyati» shakllanmokda.

Xakikatdan ham zamonaviy madaniyatning xolisona tahlili shuni kursatmoldaki, ma'naviy madaniyat kuprok ommaviylik kasb etib bormokda. Ommaviy madaniyatning kiyofasi quyidagicha:

1.U millat, yoshi, joyi, ijtimoiy xususiyatlarga boglik bulmagan ommaviy iste'molchilarga ega buladi;

2.Bu madaniyatdagi namunalarni yaratgan jarayonning o'zi ommaviy xususiyat kasb etib, industriyaning maxsus kurinishini o'zida namoyon kiladi, ya'ni unda yuz minglab kishilar band bulib, ularning «matbuot kiroli», «Buyuk shou tomoshabinga», «kino, TV, estrada yulduzlari» buladi.

Ommaviy madaniyat umumiy iste'molchilik extiyoji bilan boglik. Buning asosida iste'mol talab tovar sifatida xaridorgir bulish ma'anviy extiyoji yotadi. Okibatda hozirgi zamon madaniyatidagi ma'naviy qadriyatlar tor doiradagi extiyojlarni kondirish vositasiga aylanadi. Madaniyatning chukur ma'nomoxiyati, xotira cheksizligi «odatli», «umumiy» kimmatlar bilan, xakikiy ijod

avvaldan ma'lum, mavjud namuna asosidagi «asarlar» yaratish va ishlab chikish (kinoseriallar, saez TV va adabiy asarlar) bilan almashinadi. Shaxs o'zining ijodiy kobiliyati milliyatidan ayrilib, tayyor «madaniy maxsulotlar» iste'molchisiga aylanib koladi. Xususan yoshlar uchun ommaviy madaniyatning xatarli okibatlarini Prezidentimiz bir necha bor kayd etgan edilar.

Har bir inson ikki yuldan birni tanlamogi yo iste'molchi tarzda okib bilan suzmogi, yoxud o'ziga, uzligiga nisbatan talabchan bulib girdobdan chikmogi lozim. Insoniyat tobora texnika taraqqiyoti va ommaviy kommunikatsiyaning sotsial va ekologik jixatdan nazoratga olish, bugungi odam ma'naviy kiyofasini birxillashtirish (standartlash) ga karshi jiddiy tusik kuyish zaruriyatini anglamokda. Ushbu masalani uta kechkinligiga e'tibor karatish, mavjud muammolarning yechim yullarini belgilashda 1990 yillarda BMT-Bosh Assambleyasi e'lon qilgan Madaniyatning umumjahon o'n yilligi muhim bosqich bo'di. «O'n yillik»ning asosiy maksadi-iktisod va texnika tezkor rivojlanayotgan hozirga davrda umuminsoniy madaniy qadriyatlarning birinchi darajali ahamiyatini tiklashdan iborat bulib, bunda quyidagi vazifalarni xal etish masalasi amaliy kuyildi: barcha tomonidan taraqqiyotni madaniyat yuksalish muhimligini tan olish, moddiy ishlab chikarish bilan ijodkorlarning alokadorlik yullarini belgilash, madaniy o'ziga xoslik va madaniyatlar mulokotini tan olish, individual va jamoa timsolida ijodiy potensial va tashabbuskorlikni kullab-kuvvatlash, xalqaro madaniy hamkorlikni rivojlantirish va boshkalar. Mustakillik tufayli O'zbekistonning asosiy maksadi madaniyatlarni yanada rivojlantirish va bir-birini boytishga yunaltirilgan BMT boshchiligida utkazilgan kator xalqaro dasturlarda jumladan, «Umumjahon manadiy merosi», «Buyuk ipak yuli» dasturlarida bevosita va faol ishtirok etdi. Bugungi kunda Respublikada umumjahon ahamiyatiga molik maxomidagi Samarkand, Buxoro, Xiva va Shaxrisabz yodgorliklari mavjud, shulardan keyingi uchtasi mavzku makomga 1991 yildan sung erishdi.

«Buyuk ipak yuli»-bu nafaqat tarix, u bugungi kun hamdir. 1993 yilning mayida yevropa komissiyasi Bryusselda Markaziy Osiyo, Kavkaz hamda yevropa ittifoki davlatlari vakillarini tupladi. Maksud-ajdodlardan kolgan kadim yullarni tiklash orkali Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasidagi mustaqil davlatlarni jahon iqtisodiyotiga integratsiyasini ta'lim etish; Uchrashuvda yevropa-Kavkaz-Osiyo transport yulagini tashkil etish tugrisida deklaratsiya qabullandi. I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, TRASEKA (transport yulagi) loyixasini amalga oshirish-Buyuk ipak yulini kayta tiklash ayrim shaxslar faoliyatining mahsuli emas, u zamon, jahon taraqqiyotining ob'ektiv zaruriyatidir. YuNeSKOning amaliy qadamlaridan biri-«Ipak yli-mulokot yli dasturi asosida Samarkandda Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixini urganishga karatilgan xalqaro Markaziy Osiyo tadkikotlari institutining tashkil etilishi buldi.

Mustakil davlatimizning milliy madaniyatini tiklash, rivojlantirish va umuminsoniy qadriyatlar asosida boyitishyulidagi yutuklari tufayli 1997 yili O`zbekiston YuNeSKO Ijroiyy Kengashining a'zosi etib kullandi, Prezidentimiz I.A.Karimov «Ibn Sino» medali bilan takdirlandi. Yurtimizda jisman va ma'nan soglom avlodni tarbiyalash, ta'lim tizimini takomillashtirish yoshlarda tarixiy ong va mustakil tafakko`rni shallantirishga katta e'tibor karatmokda. 2000 yil O`zbekistonda «Soglom avlod yili» deb belgilandi. Buni moxiyati shundaki, kechayotgan isloxotlarning moxiyati insonga karatilgan va u inson uchun amalga oshirilmokda. Binobarin soglom avlod-millat, yurt kelajagi demak. Yurtimizda birinchi ordeni ham «Soglom avlod uchun» deb nomlangani bejiz emas. Bu buyuk kelajak yulidagi umidli qadam timsolidir.

Xulosa.

Milliy madaniyat orkali xalqning tarixini urganish mumkin. Bu xalqning ma'naviy yuksaklik darajasini ham belgilovchi sifatdir. Milliy madaniyat boshka xalqlarda deyarli takrorlanmasligi bilan farkanar ekan.

Mustakillik yillarida xalqqa uning ma'naviy va madaniy boyliklarini kaytarish borasida kuplab ishlar qilinmoqda. Dastlabki, eng muhim qadam "O`zbek tili xaqidagi" konunning qabul qilinishi buldi. Bu bilan uzbek tilidagi xalqning beboxo madaniy va milliy boyligi makomi tiklandi. Buxoro va Xiva shaxarlaridagi me'morchilik yodgorliklarini ta'minlash borasida faol ishlar olib borilib, yodgorliklar shu davrda jahon ahamiyatidagi makomga ega buldi.

Xalkka uz tarixi va xotirasi kaytarilmokda. Milliy va jahon madaniyati rivojiga ulkan xissa kushgan vatandoshlarimizning xizmatlari xaqida yubiley tan'tanalari utkazildi.

Milliy an'analarni tiklash buyicha kuplab ishlar kilindi, Navruz, xayit kabi kadimgi xalq va diniy bayramlar rasman hayotga kaytdi. Xayr muruvvat udumlarini davom ettirish va yosh avlodni barkamol ustirish maksadida O`zbekiston Respublikasi Soglom avlod uchun jamgarmasini tashkil kilib, dastlabki ordenni ham shunday atadi, O`zbekistonda xalqaro kino , teatr va "Sharq taronalari" kabi musikali festivallar utkazish yaxshi an'anaga aylanib koldi. Sharq taronalari" kabi musikali festivallar utkazish yaxshi an'anaga aylanib koldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. O`zbekistonning uz istiqlol va taraqqiyot yo`li. T. 1992.
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., O`zbekiston, 1994 y.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., O`zbekiston, 1998 y.
4. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr busag`asida. T. 1998 y.
5. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. T., 1998 y.
6. Xayrullaev M. Madaniy meros va falsafiy fikr tarixi. T. 1985 y.